

**«O‘ZLITINEFTGAZ» AJ HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI DSc.23/25.08.2021.T.136.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

«O‘ZLITINEFTGAZ» AJ

BEKOV BEKZOD XUSANOVICH

**USTYURT MINTAQASIDAGI KO‘P QATLAMLI TABIIY GAZ
KONLARINI QAZIB OLIH SAMARADORLIGINI OSHIRISH**

04.00.13 – Neft va gaz konlarini o‘zlashtirish hamda ishlatish

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата доктора философии (PhD) по
техническим наукам**

**Contents of the dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) and
technical sciences**

Bekov Bekzod Xusanovich

Ustyurt mintaqasidagi ko‘p qatlamli tabiiy gaz konlarini qazib olish
samaradorligini oshirish.....3

Беков Бекзод Хусанович

Повышение эффективности разработки многопластовых месторождений
природного газа Устюртского региона.....21

Bekov Bekzod Khusanovich

Improving the efficiency of the development of multi-layer natural gas fields
in the Ustyurt region.....41

Nashr qilingan ishlar ro‘yhati

Список опубликованных работ

List of published works45

**«O‘ZLITINEFTGAZ» AJ HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI DSc.23/25.08.2021.T.136.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

«O‘ZLITINEFTGAZ» AJ

BEKOV BEKZOD XUSANOVICH

**USTYURT MINTAQASIDAGI KO‘P QATLAMLI TABIIY GAZ
KONLARINI QAZIB OLIH SAMARADORLIGINI OSHIRISH**

04.00.13 – Neft va gaz konlarini o‘zlashtirish hamda ishlatish

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.3.PhD/T3863 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya ishi «O'ZLITINEFTGAZ» AJda bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb sahifasida (www.liting.uz) va «ZiyoNet» Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Nazarov Azizbek Ulug'bekovich
taxnika fanlari doktori

Rasmiy opponentlar:

Maxmudov Nazirila Nasimxanovich
Texnika fanlari doktori, professor

Akramov Baxshillo Shafievich
Texnika fanlari nomzodi, professor

Yetakchi tashkilot:

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti

Dissertatsiya himoyasi «O'ZLITINEFTGAZ» AJ huzuridagi DSc.23/25.08.2021.T.136.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil 14 mart soat 15⁰⁰ daqiqa majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100029, Toshkent sh., Taras Shevchenko ko'chasi, 2-uy, tel.: +998712806700; faks +998712566648; e-mail: liting@liting.uz.)

Dissertatsiya ishi bilan «O'ZLITINEFTGAZ» AJning Axborot resurs markazida tanishish mumkin. (ro'yxatdan o'tish raqami 14. Manzil: 100029, Toshkent sh., Taras Shevchenko ko'chasi, 2-uy, tel.: +998712806700; faks +998712566648; e-mail: liting@liting.uz.)

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil _____ kuni qabul qilindi.

(2025 yil « _____ » daqiqa raqamli reestr bayonot nomi).



U.S. Nazarov

Ilmiy darajalar berish bo'yicha Ilmiy Kengash raiisi, texnika fanlari doktori, professor

R.U. Shafiyev

Ilmiy darajalar berish bo'yicha Ilmiy Kengashning ilmiy kotibi, texnika fanlari doktori, katta ilmiy hodim

N.N. Mahmudov

Ilmiy darajalar berish bo'yicha Ilmiy Kengash huzuridagi Ilmiy seminar raiisi, texnika fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining annotatsiyasi)

Dissertasiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda ko‘p qatlamli gaz va gaz-kondensat konlarini o‘zlashtirish va ulardan foydalanishni loyihalashtirishning turli usullari keng qo‘llanilmoqda. Shu bilan maksimal gaz va kondensat beraolishlikka erishishga yo‘naltirilgan ko‘p qatlamli gaz va gaz-kondensat konlarini oqilona ishlatish ko‘rsatkichlarini aniqlash dolzarb vazifa hisoblanadi. Shu munosabat bilan ko‘p qatlamli gaz va gaz-kondensat konlarini o‘zlashtirish bo‘yicha ulardan maksimal gaz va kondensat qazib olishga erishishga qaratilgan optimal ko‘rsatkichlarni asoslash dolzarb vazifa hisoblanadi.

Dunyoning yetakchi ilmiy markazlarida uglevodorod zaxiralarini maksimal darajada qazib olishga qaratilgan ko‘p qatlamli gaz va gaz-kondensat konlarini ishlatish tizimlarini takomillashtirish yo‘nalishida keng ko‘lamli ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bunda mahsuldor qatlamlarning geologik-geofizik xususiyatlarini o‘rganish, quduqlarda olib borilgan tadqiqotlar natijalarini qayta ishlash, quduqlar fondidan foydalanish ko‘rsatkichlarini tahlil qilishga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Respublikadagi yuqori gaz olish sur‘atlari va gaz chiqarib olish koeffitsientiga (GChOK) erishish maqsadida ishlatilayotgan gaz va gazkondensat konlarida qatlam suvini berkitish va quduqlar tubiga gaz oqimini jadallashtirish texnologiyalarini takomillashtirish va joriy etish bo‘yicha ilmiy va amaliy ishlar olib borilmoqda va muayyan ilmiy natijalarga erishildi. Yangi O‘zbekistonni 2022-2026 yillarda¹ rivojlantirish strategiyasida milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yoqori o‘sish sur‘atlarini ta‘minlash bo‘yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Bu borada sanoat tarmoqlarida energiya samaradorligini va resurslardan foydalanish darajasini oshirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Shundan kelib chiqib, ko‘p qatlamli tabiiy gaz va gazkondensat konlarini samarali ishlatish sistemalarini yaratish va GChOKni oshirish bo‘yicha tadqiqotlar muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022 yildagi PF-60-sonli «2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi Farmonida va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 07.09.2019 yildagi PQ-4388-sonli «Aholi va iqtisodiyotni energiya resurslari bilan barqaror ta‘minlash, neft-gaz tarmog‘ini moliyaviy sog‘lomlashtirish va uning boshqaruv tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori, hamda neftgaz sanoatini rivojlantirish bo‘yicha qabul qilingan boshqa me‘yoriy-xuquqiy hujjatlarda belgilab berilgan vazifalarni bajarishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyani rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga muvofiqligi. Mazkur ilmiy tadqiqot ishi Respublikada fan va texnologiyalarni rivojlantirishning VIII «Yer to‘g‘risidagi fanlar» (geologiya, geofizika, seysmologiya va mineral xom ashyoni qayta ishlash) ustuvor yo‘nalishiga muvofiq amalga oshirildi.

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni

Muammoni o'rganilganlik darajasi. Ko'p qatlamli gaz va gaz-kondensat konlarini o'zlashtirish muammolarini o'rganishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar dunyoning ko'plab yetakchi ilmiy markazlari va universitetlarida, jumladan, «O'ZLITINEFTGAZ» AJ, Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti, «Neft va gaz konlari geologiyasi hamda qidiruv instituti» Davlat muassasasi, «GRDC» MChJ, I.M. Gubkin nomidagi Rossiya davlat neft va gaz universitetining Toshkent shahridagi filiali, Rossiyaning ilmiy markazlari va neft va gaz ta'lim muassasalari «ВНИИГАЗ» OAJ, «ВНИИНЕФТЬ» OAJ, «ТатНИПИнефть» OAJ, «БашНИПИнефть» OAJ, Ufa neft universiteti, I.M. Gubkin nomidagi Rossiya davlat neft va gaz universiteti va boshqalarda olib borilmoqda.

Xorijiy olimlar A.A. Ibatulin, A.I. Ponomarev, Z.S. Aliev, Yu.K. Tsiku, V.N. Federov, V.N. Shchelkachev, B.B. Lapuk, Yu.P. Korotaev, G.A. Zotov, S.N. Zokirov, H. Kazimi, S.D. Joshi, W. Hurst va boshqalarning ko'plab fundamental ishlari ko'p qatlamli tabiiy gaz konlarini ishlatish samaradorligini oshirishga bag'ishlangan.

O'zbekistonda ko'p qatlamli gaz va gaz-kondensat konlarini o'zlashtirishning optimal ko'rsatkichlarini loyihalashni o'rganishga S.N. Nazarov, Z.S. Ibragimov, A.A. Obidov, F.I. Makushev, R.M. Miklin, U.S. Nazarov, V.M. Shevsov, A.X. Agzamov, B.A. Aliev, P.K. Azimov, E.K. Irmatov, B.X. Xujayorov, N.N. Mahmudov, A.A. Zokirov, A.U. Nazarov, B.Sh. Akramov, A.S. Mustafоеv, M.S. Sunnatov va boshqalarning ishlari bag'ishlangan.

O'zbekistonda ko'p qatlamli tabiiy gaz konlarini ishlatish amaliyoti va hozirgi holati ularning zaxiralarini olish darajasi nisbatan pastligidan dalolat beradi. Agar Buxoro-Xiva mintaqasidagi gaz va gaz-kondensat konlarida zaxirani qazib olish darajasi 64%ga teng bo'lib, joriy gaz qazib olish sur'ati 3,2%ga teng bo'lsa, Ustyurt mintaqasining ko'p qatlamli konlarida zaxirani qazib olish darajasi 11% bo'lgan holda, hozirgi gaz olish sur'ati atigi 1,6% ni tashkil qiladi. Bu esa Ustyurt mintaqasida ko'p qatlamli konlarni ishlatishni loyihalashda nazariy va amaliy yondashuvlarni takomillashtirishni taqozo etadi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti «O'ZLITINEFTGAZ» AJ ilmiy-tadqiqot ishlari, amaliy loyihalari rejasiga muvofiq PU 03.03/14.14 «Dali gaz-kondensat konini tajriba sanoat ishlatish loyihasiga tuzatishlar» (2014-yil); PU 03.01/18.18 «Inam gaz-kondensat konini ishlatish loyihasi» (2018-yil); PU 03.14.19.19 «Sayxun gaz-kondensat konini tajriba sanoat ishlatish loyihasi» (2019-yil); PU 03.03/19.19 «Tillali gaz-kondensat konini tajriba sanoat ishlatish loyihasi» (2019-yil); PU 03.07/20.21 «Ustyurt gaz boshqarmasi uglevodorod konlarini geologik va gidrodinamik nazorat qilish» (2021-yil); PS 03.06/20.21 «Akchalak guruhi konlarini ishlatish tahlili» (2021-yil); PU 03.14/21.21 «Quyi Surgil gaz-kondensat konini tajriba sanoat ishlatish loyihasiga tuzatishlar» (2021-yil); PU 03.12/21.21 «Shimoliy Berdak gaz-kondensat konini ishlatish loyihasiga tuzatishlar» (2022-yil); PU 03.13/21.21 «Sharqiy Berdak gaz-kondensat konini ishlatish loyihasiga tuzatishlar» (2022-yil); «2022-2026-yillarda «O'zbekneftgaz» AJ konlarida gaz va gaz kondensati qazib olish hajmini

yiliga 33,5 mlrd.m³ hajmida ushlab turish» TIA loyihasi (2022-yil); PU 03.07/23.23 «Arslan gaz-kondensat konini ishlatish loyihasi» (2023-yil) ilmiy-tadqiqot loyihalari doirasida amalga oshirildi.

Tadqiqotning maqsadi gaz qazib olish sur'atlarini oshirish va geologik zaxiralarni maksimal darajada qazib olishga qaratilgan ko'p qatlamli konlarni ishlatish samaradorligini oshirishning yangi yondashuvlarini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Ustyurt mintaqasidagi ko'p qatlamli gaz-kondensat konlari geologik tuzilishining asosiy qonuniyatlarini tahlil qilish;

Ustyurt mintaqasida ko'p qatlamli tabiiy gaz konlarini ishlatish xususiyatlarini o'rganish;

Ustyurt mintaqasidagi murakkab tuzilishli ko'p qatlamli tabiiy gaz konlarini ishlatish va ulardan foydalanish samaradorligini oshirishning yangi tamoyillarini ishlab chiqish;

murakkab tuzilishli ko'p qatlamli Ustyurt tabiiy gaz konlarini ishlatish texnologiyalarini takomillashtirish.

Tadqiqotning ob'ekti sifatida Ustyurt mintaqasidagi ko'p qatlamli tabiiy gaz konlari olingan.

Tadqiqotning predmetini Ustyurt mintaqasidagi murakkab ko'p qatlamli konlardan gaz va kondensat qazib olishni jadallashtirish texnologiyalari tashkil etgan.

Tadqiqot usullari. Dissertatsiya ishini bajarishda «Shlumberger» kompaniyasining «Petrel» dasturiy ta'minotidan foydalangan holda zamonaviy uch o'lchovli geologik modellarga asoslangan geologik profillar, tuzilmali xaritalar tuzish bilan ko'p qatlamli gaz va gaz-kondensat konlarini ishlatish tajribasini umumlashtirish va tizimli tahlil qilish usullaridan, hamda «Eclipse» dasturlari asosida gidrodinamik modellashtirish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Ustyurt mintaqasidagi konlarning ko'p qatlamliliigi, uyum maydoni bo'ylab alohida to'silgan qismlarining tarqalganligi va kollektorlarni gaz bilan to'liq to'yinmaganligi bilan tavsiflanishi asoslanib, ularning zaxiralarni ishlash bilan qamrab olinishi cheklanishiga, quduqlarni ishlatishni boshidan olinayotgan mahsulot tarkibida suvni oshishiga va gaz zaxiralarini olish sur'atini kamayishiga olib keluvchi kon-geologik xususiyatlari aniqlangan;

murakkab tuzilishga ega ko'p qatlamli gaz-kondensat konlarini razvedka qilish bilan ishlatish vazifalarni birlashtirish samaradorligi, bu esa ularni sanoat miqyosida o'zlashtirish muddatini qisqartirishi va kapital xarajatlarni tejashi asoslangan;

ko'p qatlamli konlarda quduqlar to'rini zichlashtirish va suvlangan quduqlarning ishlatish texnologik ko'rsatkichlarini optimallashtirish yo'li bilan, linzasimon uyumlarni nisbatan to'liq qamrab olinishiga va olinayotgan gaz tarkibidagi suvni minimallashtirib, ularning ishlatish muddatini uzaytirishga qaratilgan, ishlatish samaradorligini oshirishning yangi yondashuvlari asoslab berilgan;

ko'p qatlamli konlarda ishlatish boshidan kichik bosimli siqish kompressor stantsiyalarning qo'shilishi quduqlar mahsuldorligini, hamda gaz va kondensat chiqarib olish koeffitsientini oshirishini ta'minlashi isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

uyumlarni ishlatishning dastlabki bosqichida gazni siqish tizimini joriy qilish orqali yaratilgan texnologik yechimlar Berdak-Shimoliy Berdak va Sharqiy Berdak konlaridan gaz qazib olish sur'atini oshirishi asoslangan;

ishlatish quduqlari to'rini zichlashtirish asosida Ustyurt mintaqasidagi murakkab tuzilishli uyumlarni o'zlashtirish samaradorligini oshirish bo'yicha yangi yondashuvlar ishlab chiqilgan;

kompresor rejimida ishlatiladigan suvlangan quduqlarning texnologik rejimi ko'rsatkichlarini optimallashtirish, konlardan geologik zaxiralarni qazib olish darajasini 64% dan 85% ga oshirishi asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Olingan natijalarning ishonchliligi quduq va qatlamlarni gidrodinamik tadqiqotlari, amaliy va loyihaviy ishlatish ko'rsatkichlarini taqqoslash, hamda ko'p qatlamli tabiiy gaz konlarini ishlatish samaradorligini oshirish bo'yicha tavsiyalarni joriy etish natijalari bilan isbotlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ko'p qatlamli konlarni geologik-kon xususiyatlarini o'rnatish, ishlatish samaradorligini oshirishni yangi yondashuvlarini ishlab chiqish, geologik razvedka va ishlatish vazifalarini birgalikda olib borish metodologiyasini va tabiiy gaz konlarini dastlabki ishlatish bosqichidan quduqlarni kompressorli ishlatish ilmiy-texnologik tamoyillarini asoslash bilan izohlanadi. Olingan ilmiy natijalar ko'p qatlamli tabiiy gaz konlarini ishlatish samaradorligini, gaz va kondensatni geologik zaxiralarini chiqarib olish darajasini orttirishni asoslash bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati suvlangan quduqlarni oqilona ishlatish rejimini, ularni kompressorli ishlatish usuliga o'tkazish vaqtini, quduqlar to'rini zichlashtirish chegarasini va ko'p qatlamli tabiiy gaz konlarini geologik razvedkasi va ishlatish vazifalarini birgalikda hal etish hisobiga xarajatlarni qisqartirishni asoslashga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarini joriy qilinishi. Ko'p qatlamli tabiiy gaz konlarini ishlatish va ulardan foydalanish samaradorligini oshirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

quduqlar to'rini yangi gaz qazib olish quduqlarini burg'ulash bilan zichlashtirish tavsiyalari Berdak-Shimoliy Berdak va Sharqiy Berdak-Uchsay konlarida joriy etilgan («O'zbekneftgaz» AJning 06.10.2024 yildagi 03-18-8-499-son ma'lumotnomasi). Natijada, Berdak-Shimoliy Berdak va Sharqiy Berdak-Uchsay konlarini gaz chiqarib olish tabiiy tushish sur'ati oldi olindi va bir me'yorda ushlab turish imkonini berdi;

uglevodorodlarni qazib olish sur'atini va maksimal darajada qoldiq zaxiralarini chiqarib olishni oshirish maqsadida gazni yig'ish va tayyorlash tizimini optimallashtirish bo'yicha ishlab chiqilgan «Sharqiy Berdak» siquv kompressor stansiyasini o'rnatish bilan bog'liq geologik-texnik tadbirlar Ustyurt gaz qazib chiqarish boshqarmasiga qarashli ko'p qatlamli konlarda joriy etilgan («O'zbekneftgaz» AJning 2024-yil 10-iyundagi 03-18-8-499-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, konlardan 2017-2020 yillarda qo'shimcha 1,5 milliard m³ gaz va 58,0 ming tonna kondensat qazib olish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarini aprobasiya qilish. Dissertatsiya tadqiqotining asosiy natijalari 3 ta xalqaro va 2 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarini nashr qilinganligi. Dissertatsiya ishining asosiy natijalari 17 ta ilmiy ishlarda, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarning asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan 8 ta respublika va xorijiy nashrlarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va belgilar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiya hajmi 112 bet.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari shakllantirilgan, tadqiqot ob‘ekti va predmeti ko‘rsatilgan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyasini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga muvofiqligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchliligini asoslanib, ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, ilmiy tadqiqot natijalarining joriy qilinishi haqidagi ma‘lumotlar keltirilgan, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi haqida ma‘lumotlar berilgan.


Dissertatsiyaning «**Ko‘p qatlamli gaz va gaz-kondensat konlarini ishlatish va ulardan foydalanish muammolarini o‘rganish**» nomli birinchi bobida Ustyurt mintaqasi o‘zining o‘rganilgan va ko‘p qatlamli konlar bilan bog‘liq tabiiy gaz zaxiralarini ko‘paytirish istiqbollari bilan O‘zbekiston neftgaz sanoatida alohida o‘rin egallashi ko‘rilgan. Ushbu konlar yura davri yotqiziqlariga mansub bo‘lib, murakkab geologik tuzilishi va katta resurs salohiyati bilan ajralib turadi, bu esa ularni ishlatish va foydalanish samaradorligini oshirish uchun yangi yondashuvlarni ishlab chiqishni taqozo etadi.

O‘zbekistonning taniqli olimlari tomonidan Ustyurt mintaqasidagi konlarning yura davri yotqiziqlaridagi mahsuldor qatlamlari va istiqbolli maydonlari o‘ta murakkab geologik tuzilishi bilan ajralib turishi, dunyoda o‘xshashi yo‘qligi va o‘tish davri (deltali, lagunali va litoralli) cho‘kindilariga tegishli ekanligini ta‘kidlaganlar. Bu esa qum-alevrolitli qatlamlarning va ularni ajratuvchi loyli qopqoqlarning tez-tez qatlamlanishiga olib kelgan.

Bu yotqizilarda kollektorlarning maydon va kesimi bo‘yicha nihoyatda notekis tarqalganligi bilan tavsiflanadi. Ushbu kollektorlar qalinligi o‘nlab santimetrdan bir necha metrgacha bo‘lgan linzalar va o‘zaro yomon taqqoslanadigan qumtosh tanali yupqa qatlamchalar bilan ifodalanadi, ularning aksariyati maydon bo‘ylab tarqalishini cheklanganligi va kollektor jinslarining intervallari bo‘yicha bo‘linganligi bilan tavsiflanadi (1-rasm).

Jahon amaliyotida ko‘p qatlamli konlarni ishlatish tizimlari quyidagilarga bo‘linadi:

- qatlamlarni pastdan yuqoriga bosqichma-bosqich ishlatish;
- har bir mahsuldor qatlamni mustaqil quduq to‘ri bilan ishlatish;



1-rasm. Berdak-Shimoliy Berdak gaz-kondensati konining litologik kubining tuzilmali kesimi.

- bitta quduqda yagona filtr bilan bir vaqtning o'zida ikki yoki uchta qatlamlarni ishlatilish;


- ikki yoki undan ortiq qatlamlarni bir quduq bilan, ularni paker qurilmalari bilan ajratish orqali bir vaqtda alohida ishlatish (BAI).

Ko'p qatlamli uglevodorod konlarini ishlatish tizimlarini amalda qo'llashda qiyinchiliklarga duch kelinadi. Bundan tashqari, loyihalashda ushbu ishlatish tizimlari har bir mahsuldor qatlamning kon-geologik xususiyatlarini hisobga olmaydi.


Tadqiqotlar bilan Ustyurt mintaqasidagi konlarni o'zlashtirish jarayonining dastlabki bosqichidanoq mahsulot tarkibidagi suv miqdorining ortishi va quduq ustki bosimining keskin pasayishi sababli quduq debitining tez kamayishi mahsuldorlikning o'ziga xos dinamikasi bilan tavsiflanuvchi kon-geologik xususiyatlari aniqlandi. Ushbu holat tajriba sanoat ishlatish (TSI) davrida konlardan foydalanish tizimini takomillashtirishni talab qiladi.

Tabiiy gaz konlarining mahsuldorligi geologik sharoitlar, qatlamlarni ochish va o'zlashtirish texnologiyalari, shuningdek, iqtisodiy va ekologik jihatlari ko'plab omillar bilan belgilanadi. Ustyurt mintaqasidagi Sharqiy Berdak, Berdak-Shimoliy Berdak, Arslon, Inam, G'arbiy Quyi Surgil, Quyi Surgil, Quyi Sharkiy Berdak, Tillali, Dali va Shag'irliq konlaridagi geologiya qidiruv va o'zlashtirish ma'lumotlari asosida aniqlangan kon-geologik xususiyatlariga ko'ra ko'p qatlamli konlarning mahsuldorligini belgilovchi qo'shimcha ko'rsatkichlar o'rganilishi kerak.


Ustyurt mintaqasidagi ko'p qatlamli tabiiy gaz konlarining geologik xususiyatlarining ularning mahsuldorligiga ta'sirini baholash uchun gazning solishtirma zaxiralari dinamikasi va quduqlarning o'rtacha debitining zaxiralarni olinganlik darajasiga ta'siri bo'yicha tadqiqotlar bajarildi. (2-5-rasm).




2-rasm. Berdak-Shimoliy Berdak konidagi quduqlarning o'rtacha debiti va solishtirma zaxiralari dinamikasi.



3-rasm. Sharqiy Berdak konidagi quduqlarning o'rtacha debiti va solishtirma zaxiralari dinamikasi.



4-rasm. Quyi Sharqiy Berdak konidagi quduqlarning o‘rtacha debiti va solishtirma zaxiralari dinamikasi.



5-rasm. Quyi Surgil konidagi quduqlarning o‘rtacha debiti va solishtirma zahiralari dinamikasi.

Tahlil etilgan ko'rsatkichlar ko'rib chiqilayotgan konlarda gaz qazib olish quduqlarining o'rtacha debiti dinamikasi bilan ularning solishtirma zaxiralari dinamikasi bog'liqligini aniqladi. Bu bog'liqlik, ayniqsa, uzoq muddat ishlatilayotgan gaz qazib olish quduqlarining nisbatan yuqori solishtirma zaxiralarga ega Berdak-Shimoliy Berdak va Sharqiy Berdak konlarida yaqqol (2, 3-rasm) va Quyi Surgil konida (5-rasm) esa past darajada ekanligi ko'zga tashlanadi.

Shu bilan birga, quduqlarni ishga tushirishning dastlabki 2-3 yilida, ayniqsa, Quyi Sharqiy Berdak va Quyi Surgil konlarining chuqur yotgan uyumlarida, quduqlarning mahsuldorligi keskin pasayganligi kuzatiladi. Shunday qilib, agar Shimoliy Berdak va Sharqiy Berdak konlarini uzoq muddatli ishlatish davrida quduqning o'rtacha debitining o'rtacha pasayish darajasi 4,8% va 11,5% bo'lsa, Quyi Sharqiy Berdak va Quyi Surgil gaz kondensati konlarining chuqur joylashgan uyumlari uchun bu ko'rsatkich 15,1% va 25,4%ni tashkil etadi. Aniqlanishicha, bu holatni belgilovchi asosiy omil Ustyurt mintaqasidagi uyumlarning boshlang'ich yuqori suv bilan to'yinganligi va bitta qudug'iga to'g'ri keladigan solishtirma zaxiralarning lokal chegaralanganligi hisoblanadi.


Quduqlarni dastlabki ishlatish davridagi katta debitlar qazib olinayotgan gazlarning yuqori oqim (≥ 5 m/s) tezligini hosil qiladi, bu esa suyuqlikni quduq tubidan to'liq chiqarib tashlashni osonlashtiradi. Shu bilan birga, gaz tarkibidagi suvning ko'pligi ko'taruvchi quvurlar bo'ylab harakatlanayotganda ishqalanish tufayli bosim yo'qotishlarining oshishiga olib keladi, bu esa uyumni ishlatishning dastlabki bosqichida ekspluatasion quduqlar usti bosimlarining pasayishiga sabab bo'ladi. Qatlam bosimining pasayishi quduq oqimining kamayishiga olib keladi va shunga mos ravishda lift quvurlaridagi gaz oqimi tezligi 5 m/s dan kamayadi, bu esa quduq tubida to'plangan suyuqlik fazasini ko'tarib chiqarishga imkon bermaydi.

Bunday vaziyatda, quduqlar usti ishchi bosimlari konda qazib olingan gazni tashish va tozalash uchun sharoit yarata olmaydi, quduqning tubida to'plangan suyuqlik (suv, kondensat) gaz qazib olishni to'liq to'xtatishiga olib keladi.

Debitlarni pasayish sharoitlarida, ishlab chiqarish korxonalarining loyihaviy gaz olishni, qatlamga berilayotgan depressiyani oshirish hisobiga ularni ushlab turishga intilishi qatlam suvini quduq tubiga tortilishini tezlashtiradi va mos ravishda ularning mahsulotini yana ham ko'proq suvlanishiga olib keladi. Shunday qilib, dissertatsiya tadqiqoti natijalariga ko'ra, Quyi Surgil konida quduqlarning solishtirma zaxiralari va quduqlar unumdorligining nisbatan past bog'liqligi ushbu kondagi quduqlarni kompressorli ekspluatasiya usuliga o'tkazilishning kechikishi bilan bog'liqligi aniqlandi.

Umuman olganda, Ustyurt mintaqasidagi konlarni 2002 yildan 2023 yilgacha bo'lgan davrdagi ishlatish ko'rsatkichlarini tahlili shuni ko'rsatadiki, gaz qazib olish dinamikasi (q), alohida quduqlarda qatlamga berilayotgan kompleks depressiyaning pasayishi bilan bevosita aloqador ($q = f(P_{qat}^2 - P_{ust}^2)$) tabiiy gaz oqimining suyuqlikni olib chiqish tezligiga yetmaydigan, konlarni dastlabki o'zlashtirish davrlarida harakatdagi quduqlar fondini ko'payishi bilan bog'liq (6-rasm).

Ustyurt mintaqasi tabiiy gaz konlarining unumdorligini belgilovchi geologik omillarni tizimli tahlil qilish natijalari dissertatsiya tadqiqotining vazifasini belgilab berdi, uning yechimi konlarni ishlatish va ulardan foydalanish samaradorligini



6 - rasm. Ustyurt mintaqasidagi konlardagi harakatdagi quduqlar fondni, gaz va kondensat qazib olish dinamikasi.

oshirishga, konlardan gaz va kondensat qazib olishni oshirishga yangicha yondashuvlarni ishlab chiqishga qaratilgan.

«Ustyurt mintaqasidagi konlarning joriy qazib olish salohiyatini tizimli tahlil qilish» nomli ikkinchi bob mintaqada ko'p qatlamli konlarni ishlatish imkoniyatlarini oshirish maqsadida ularni o'zlashtirishning samarali tizimlarini yaratish imkoniyatlarini aniqlashga bag'ishlangan.

Ustyurt mintaqasi konlarining kon-geologik xususiyatlarini har tomonlama tahlil qilish orqali ushbu mintaqadagi konlarni zaxiralarini qazib olinishi qiyin turiga mansubligini oldindan belgilab beruvchi asosiy geologik omillar aniqlandi.

Zaxiralarning qazib olinishi qiyinligini belgilovchi omillar quyidagilardir:

- mahsuldor qatlamlarining yotish chuqurlida joylashgan 10 dan 24 tagacha uyumlardan iborat konlarni ko'p qatlamligi;

- har bir uyumning gazga to'yingan qalinligi 7 - 15 m dan ortiq bo'lmasligi;

- har bir uyumning tuzulmali maydonida bir-biri bilan gidrodinamik bog'lanmagan, o'ziga xos past solishtirma zaxiralari bilan tavsiflangan, chegaralangan gazga to'yingan linzalarning mavjudligi;

- uyumlardagi gazning yuqori boshlang'ich namligi, xom ashyoning dastlabki qatlam bosimi sharoitida, gaz va suyuqlik fazasining to'liq ajralmasligi bilan tavsiflanadigan fizik-kimyoviy holatini birinchi marta aniqlab bergan.

Ushbu omillar konlarni loyihalashda yangi yondashuvlarni qo'llash zarurligini oldindan belgilab berdi.

Hozirgi vaqtgacha Ustyurt mintaqasida «O'zbekneftgaz» AJ tasarrufidagi 19 ta tabiiy gaz konlari ochilgan bo'lib, ulardan 10 tasi ishlatishda, qolganlari o'zlashtirishga tayyor yoki geologiya-qidiruv ishlari bosqichida. Ustyurt mintaqasidagi konlarda jami 347 ta ekspluatatsion quduqlar burg'ilangan bo'lib, ulardan 222 tasi harakatda, 25 tasi to'xtatilgan, 6 tasi konservatsiyada, 46 tasi nazoratchi va 48 tasi tugatish fondida.

O'rganish natijalari shuni ko'rsatadiki, 2002 yildan hozirgi kungacha bo'lgan davrda 119 ta quduq yoki umumiy ishlatish quduqlarining 34,3% foydalanishdan chiqarilgan. Quduqlarni foydalanishdan chiqarilishining asosiy sababi, suyuqlik ustuni bosimining qatlamga aks ta'siri natijasida, qatlam tizimlaridan olinadigan suyuqlik bilan quduq tubi zonasining to'yinganligi oqibatida quduqlarning suvlanishidir. Natijada quduq tubi zonasining gaz bo'yicha fazaviy o'tkazuvchanligi sezilarli darajada yomonlashadi, bu esa gazning ushlab qolinishiga va quduq mahsuldorligini pasayishiga olib keladi.

Bunday sharoitda gaz qazib olish quduqlari tezda ishdan chiqadi, chunki yer ustki infratuzilmasining an'anaviy tizimi qazib chiqarilgan gazning chiqish tezligini saqlab turish uchun qatlam depressiyasini oshirish imkoniyatlarini cheklaydi.

Ustyurt konlarida suvlangan va ishdan chiqqan gaz qazib olish quduqlarini kapital ta'mirlash bo'yicha amaliyotda qo'llanilayotgan texnologiyalar tahlili shuni ko'rsatadiki, asosiy geologik-texnologik tadbirlar ishlatilayotgan ob'ekt oralig'idan boshqa gazga to'yingan qatlamlarga suv o'tkazmaydigan ko'priklarni o'rnatishdan iborat. Bunday yondashuv ishlatilayotgan Ustyurt konlarining qatlamlarida o'zlashtirishning past samaradorligiga olib keladi, chunki gaz va kondensatning nisbatan katta qoldiq zaxiralari to'liq o'zlashtirilmay qoladi.

Geologik va gidrodinamik modellarni yaratish orqali alohida quduqlarni burg'ulash va ulardan foydalanish, ko'p qatlamli tizimlarda alohida gaz uyumlarini qiya yo'nalishli va gorizontal quduqdan foydalangan holda ochish hamda quduqlarni eng samarali ishlatish imkoniyatlarini baholash bo'yicha tajriba-sinov ishlari olib borildi.

Tadqiqotlar uzaytirilgan quduq tanasi bilan uyumni yon tomonlama ochib, lokal chegaralangan zonalarni ishlab chiqarishga joriy etish har bir quduqdan olinishi mumkin bo'lgan zaxiralarni, hamda qalinligi kichik bo'lgan mahsuldor qatlamlardan ham gaz qazib olish sur'atini oshirish imkoniyatlari oldindan belgilab berishini isbotladi.

Suvlangan yoki past debitli quduqlardan gaz qazib olishning maksimal sur'atini saqlab qolish uchun dissertatsiya tadqiqotida konni o'zlashtirishning dastlabki bosqichidayoq gazni siqish tizimlarini loyihalash taklif etiladi. Ushbu tizimlar suvlangan quduqlarda past ishchi bosimni o'rnatishga imkon beradi, bu ularning oqim tezligini oshiradi va suyuqlikni quduq tubidan to'liq olib chiqadi, hamda shu bilan konni o'zlashtirish samaradorligini oshiradi. Ushbu tizimlarning o'rnatilishi me'yoriy hujjatlar talablariga muvofiq suyuqlik fazasini (gaz kondensati, qatlam suvi) maksimal darajada olish bilan konda gazni tozalashni optimallashtirishga yordam beradi.

Ustyurt mintaqasidagi ko'p qatlamli konlarni ishlatish tajribasini tizimli tahlil qilish va umumlashtirish asosida ko'p qatlamli konlarda gaz qazib olish sur'atlarini oshirishga qaratilgan quyidagi texnologik yechimlar ishlab chiqildi, jumladan:

- yonma-yon gidrodinamik bog'lanmagan lokal chegaralangan uyumlarni ishlatish maqsadida burg'ulash orqali quduqlar to'ri zichligini oshirish;

- bitta quduq orqali 2 dan 4 tagacha uyumlarni ishlatish hisobiga quduqlarning unumdorligini sezilarli darajada oshirish maqsadida ko'p qatlamli konlar tizimining alohida uyumlarini ekspluatatsiya qiluvchi ko'p tubli quduqlarni yaratish;

- yer osti qismini ishlatish vazifalarini yer usti jihozlari bilan tizimli bog'lab integrasiyalashgan holda konlarni ishlatish tizimlarini yaratish, konni ishlatishning dastlabki bosqichlaridan boshlab gazni siqish texnologiyalarini yaratish, ilgari sanoat zaxiralarning qazib olish darajasi 50% dan ortganda amalda qo'llaniladigan konlarni kompressorli foydalanishga o'tkazish tizimiga nisbatan zaxiralarning qazib olish darajasi 10 dan 15 % ga yetganda joriy etishni nazarda tutadi.

Dissertatsiya ishining **«Ustyurt mintaqasidagi konlarda tabiiy gaz qazib olish sur'atini oshirish uchun jadallashtiruvchi texnologiyalarni joriy etish»** nomli uchinchi bobida tabiiy gaz qazib olish hajmlarini saqlab qolish vazifasi sifatida qatlam tizimlarida uglevodorodlar paydo bo'lishining murakkab geologik sharoitlari va ularning fizik-kimyoviy holati bilan muntazam ravishda bog'liq holda, zaxirasi turli darajada qazib olingan konlarni ishlatish samaradorligini oshirish va geologiya-qidiruv ishlarini jadallashtirish ko'rsatilgan.

Gaz qazib olish sur'ati dinamikasining aniqlangan qonuniyatlarini va geologik zaxiralarni olinganlik darajasini konlarning murakkab geologik tuzilishi va to'yintiruvchi flyuidlardan bog'liqligini inobatga olib, sinov sanoat ishlatish va qo'shimcha qidiruvni davom ettirish masalalarini birga hal etishni nazarda tutuvchi, Ustyurt mintaqasidagi konlarni o'zlashtirish tamoyilini aniqlovchi holatlar

isbotlandi. Ushbu tamoyil geologik zaxiralarni, geometrik hisoblashni avval ishlatishga tushirilgan quduqni to‘yinish chegarasini gidrodinamik eshitish bilan kompleks amalga oshirib, baholangan, chegarasi ichida baholovchi-ishlatish quduqlarini joylashtirishga asoslangan. Ushbu qo‘shimcha qidiruvni davom ettirish tizimini joriy etilishi, geologik-geofizik tadqiqotlar natijasida aniqlangan tuzilmalar oraliq‘ida bir-biri bilan gidrodinamik bog‘liq bo‘lmagan, alohida linzasimon ob‘ektlar bilan ifodalangan, yuqori darajadagi turli tuzilishdagi mahsuldor uyumlarning katta geologik xavflar sharoitlaridagi, Ustyurt mintaqasidagi konlarda geologik zaxiralarni orttirishni samarali ta‘minlaydi.

Dissertatsiya tadqiqotlari uglevodorodlarni qazib olish ob‘ektlarini loyihalash amaliyotiga murakkab tuzilishli konlardan yillik gaz qazib olish darajasini oshirish va ushlab turish istiqbollari texnik-iqtisodiy asoslash bilan bog‘liq holda konlarni ishlatishni prognoz ko‘rsatkichlarini qiyosiy tahlil qilish tizimini joriy etish zarurligini isbotlaydi.

Bu tadqiqotlar ko‘p o‘lchovli geologik va gidrodinamik hisoblar asosida Ustyurt mintaqasi konlaridan qo‘shimcha tabiiy gaz qazib olish imkoniyatini ko‘rsatadi.


Shimoliy Berdak, Sharqiy Berdak, Quyi Surgil, Arslon, Inam konlari uchun turli o‘zlashtirish tizimlarini loyihalash asosida konlardan qazib olish qiyin bo‘lgan uglevodorod xomashyosini qazib olishni modernizatsiyalashgan ishlatish tizimlarini joriy etgan holda, tabiiy gaz qazib olishning yakuniy koeffitsientlarini 64%dan 85%gacha oshirish imkoniyatini isbotlovchi ilmiy-texnologik yechimlar ishlab chiqilgan.

2023-2030 yillarga rejalashtirilgan tabiiy gaz qazib olish darajasi bo‘yicha ishlab chiqilgan dasturiy hujjatlar geologik zaxiralarni ko‘paytirishni hisobga olgan holda, Ustyurt mintaqasidagi ishlatilayotgan konlarning qazib olish imkoniyatlarini ko‘rsatadi. Ushbu tadqiqotlardagi hisoblarga ko‘ra, 2030 yilga kelib uzoq muddat ishlatilayotgan va hozirgi vaqtda o‘zlashtirilayotgan konlarni ishlatishni jadallashtirish, hamda geologiya-qidiruv ishlari natijalari bo‘yicha ochilgan konlarni tizimli ravishda jadal ishga tushirish bilan Ustyurt mitaqasida tabiiy gaz qazib olishning yillik hajmini 4,2 dan 11,6 milliard kub metr gacha oshirish mumkin (7-rasm).

Ustyurt mintaqasidagi konlarni o‘zlashtirish va ulardan foydalanish amaliyotiga loyihalash ishlarini olib borish tartibini belgilovchi uslubiy hujjat sifatida uglevodorod konlarini ishlatish (qo‘shimcha tarzda ishlatish)ni kompleks loyihalashtirish tizimi joriy etildi. Ishlab chiqilgan ilmiy-texnik hujjatlar loyihani amalga oshirish jarayonida geologik, texnologik, texnik va moliyaviy-iqtisodiy xavflarni boshqarish tizimini belgilaydi.

Dissertatsiya tadqiqotlariga muvofiq, Sharqiy Berdak va Berdak-Shimoliy Berdak konlarida tabiiy gaz va kondensat qazib olishni ta‘minlash bo‘yicha amalga oshirilgan loyihaviy yechimlarda, 2017-yilda «Sharqiy Berdak» gazni siquv kompressor stantsiyasi foydalanishga topshirilishi o‘z aksini topgan.

2017 yildan 2023 yilgacha bo‘lgan davrda Sharqiy Berdak va Berdak-Shimoliy Berdak konlari bo‘yicha amalga oshirilgan loyihaviy-texnologik yechimlar tufayli tabiiy gazni siqish tizimini joriy etish bilan birgalikda quduqlar to‘rini zichlashtirish orqali tabiiy gaz qazib olishning sezilarli darajada pasayishining oldi olindi.



7-rasm. Ustyurt GQB konlarida 2023-2030 yillarga rejalashtirilgan gaz qazib olish prognoz ko'rsatkichlari (Bekov B.X., 2024 y.)

Shuningdek, Sharqiy Berdak va Berdak-Shimoliy Berdak konlarini o'zlashtirish bo'yicha amalga oshirilgan loyihalarga muvofiq ishlatilayotgan murakkab konlarda, geologik qo'shimcha qidiruv ishlarini olib borish tamoyillarini qo'llashdan kelib chiqqan holda, jami qo'shimcha 4,0 milliard kubometr miqdorida tabiiy gaz qazib olishga erishildi (1-jadval).

1-jadval.

2017-2023-yillar davrida Sharqiy Berdak va Berdak-Shimoliy Berdak konlarida uglevodorod qazib olish ko'rsatkichlarining dinamikasi

Ko'rsatkichlar	Yillar							2017-2023 yillar uchun jami
	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	
Tabiiy gaz, milliard m³								
Amalga oshirilgan chora-tadbirlarni hisobga olgan holda amalda qazib olish ko'rsatkichlari	1,5	1,7	1,6	2,1	2,4	2,0	1,6	12,9
Tadbirlarni amalga oshirmasdan prognoz qilish	1,5	1,4	1,3	1,2	1,2	1,2	1,1	8,9
Ishlab chiqarishni ko'payishi	0,0	0,3	0,3	0,9	1,2	0,8	0,5	4,0
Gaz kondensati, ming tonna								
Amalga oshirilgan chora-tadbirlarni hisobga olgan holda amalda qazib olish ko'rsatkichlari	51,6	68,5	57,4	78,3	90,4	90,8	89,2	526,2
Tadbirlarni amalga oshirmasdan prognoz qilish	51,6	57,9	47,2	41,0	47,2	54,4	53,4	352,7
Ishlab chiqarishni ko'payishi	0,0	10,6	10,2	37,3	43,2	36,4	36,1	173,5

XULOSA

Ustyurt mintaqasidagi murakkab tuzilishli ko‘p qatlamli tabiiy gaz konlarini ishlatish samaradorligini oshirish bo‘yicha olib borilgan dissertatsiya tadqiqoti natijasida quyidagi asosiy ilmiy-amaliy natijalarga erishildi:

1. Murakkab tuzilishli gazkondensat konlarining ko‘p qatlamli, uyum maydoni bo‘ylab alohida to‘silgan qismlarning tarqalganligi va rezervuarlarni gaz bilan to‘liq to‘yinganligi bilan bog‘liq kon-geologik xususiyatlarining ularni ishlatish samaradorligini murakkablashtirishi aniqlandi.

2. Murakkab tuzilishli tabiiy gaz uyumlarini tajriba sanoat ishlatish bosqichi va qo‘shimcha qidirish ishlari vazifalarini birlashtirishning iqtisodiy samaradorligi isbotlandi.

3. Murakkab tuzilishli ko‘p qatlamli konlarni ishlatishning dastlabki bosqichlarida gazni siqish texnologiyasini joriy etish orqali yer osti va yer usti tizimi infratuzilmasini kompleks loyihalashning texnologik va iqtisodiy samaradorligi isbotlangan.

4. Linzasimon uyumlarni, qatlamlarning yuqori har xillik sharoitida, to‘liqroq o‘zlashtirishga qaratilgan gazni siqish tizimini joriy qilish bilan birgalikda ekspluatatsion quduq to‘rini zichlashtirish samaradorligi asoslangan.

5. Suvlangan quduqlarning texnologik ishlatish rejimlari ko‘rsatkichlarini optimallashtirish bo‘yicha yondashuvlar ishlab chiqilgan bo‘lib, quduqlarning tubi va tub zonasidan suyuqlik fazasini olib chiqarish uchun ularni qatlamlarga yuqori depressiya berib ishlatilishi zarurligi aniqlandi.

6. Berdak-Shimoliy Berdak va Sharkiy Berdak-Uchsay konlarida yangi gaz qazib olish quduqlarini burg‘ulash, ekspluatatsion quduqlar to‘ri zichligini oshirish bo‘yicha tavsiyalar joriy etildi («O‘zbekneftgaz» AJning 06.10.2024 yildagi 03-18-8-499-son ma’lumotnomasi);

7. Berdak-Shimoliy Berdak va Sharqiy Berdak-Uchsay konlaridan uglevodorodlarni qazib olish sur‘atini va qoldiq zaxiralarini qazib olishni oshirish maqsadida gazni yig‘ish va tayyorlash tizimini optimallashtirish bo‘yicha ishlab chiqilgan «Sharqiy Berdak» siquv kompressor stantsiyasini o‘rnatish bilan bog‘liq geologik-texnik tadbirlar joriy etildi («O‘zbekneftgaz» AJning 2024-yil 10-iyundagi 03-18-8-499-sonli ma’lumotnomasi). Buning natijasida Berdak-Shimoliy Berdak va Sharqiy Berdak-Uchsay konlaridan 2017-2020 yillarda qo‘shimcha 1,5 milliard m³ gaz va 58,0 ming tonna kondensat qazib olindi.

8. Ustyurt mintaqasidagi ko‘p qatlamli uyumlarni ekspluatatsion quduqlar bilan ochish va o‘zlashtirishda alohida maqsadli gorizontlarni bir vaqtda alohida ishlatish (BAI) imkoniyatini ko‘zda tutuvchi tizimlari tavsiya etiladi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.23/25.08.2021.Т.136.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ АО «O‘ZLITINEFTGAZ»**

АО «O‘ZLITINEFTGAZ»

БЕКОВ БЕКЗОД ХУСАНОВИЧ

**ПОВЫШЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ РАЗРАБОТКИ
МНОГОПЛАСТОВЫХ МЕСТОРОЖДЕНИЙ ПРИРОДНОГО ГАЗА
УСТЮРТСКОГО РЕГИОНА**

04.00.13 – Разработка и эксплуатация нефтяных и газовых месторождений

**АВТОРЕФЕРАТ
ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Ташкент-2025

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мире широко практикуются различные методы проектирования разработки и эксплуатации многопластовых газовых и газоконденсатных месторождений. В то же время существует ряд проблем, связанных с повышением извлечения остаточных запасов углеводородов многопластовых месторождений природного газа. В связи с этим актуальной является задача обоснования оптимальных показателей разработки многопластовых газовых и газоконденсатных месторождений, направленных на достижение их максимальной газо- и конденсатоотдачи.

В ведущих мировых научных центрах проводятся обширные научные исследования в области совершенствования систем разработки многопластовых газовых и газоконденсатных месторождений, направленные на максимальное извлечение запасов углеводородов. При этом, особое внимание уделяется изучению геологических и геофизических свойств, характеристик продуктивных горизонтов, обработке результатов исследований проводимых в скважинах, анализу показателей использования фонда скважин.

В Республике проводятся научные и практические работы и достигнуты определенные научные результаты по совершенствованию и внедрению на разрабатываемых газовых и газоконденсатных месторождениях технологий изоляции пластовых вод и интенсификации притока газа к забоям скважин с целью достижения высоких темпов отбора и коэффициента извлечения газа (КИГ). В стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026¹ годы поставлены важные задачи по ускоренному развитию национальной экономики и обеспечению высоких темпов роста. В связи с этим, особое внимание уделяется повышению энергоэффективности и использованию ресурсов в отраслях промышленности. Исходя из этого, исследования по созданию эффективных систем разработки многопластовых месторождений природного газа и повышению КИГ имеют важное научно-практическое значение.

Настоящее диссертационное исследование в определенной степени служит выполнению задач, предусмотренных Указом Президента Республики Узбекистан №УП-60 от 28.01.2022 г. «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы» и Постановлением Президента Республики Узбекистан №ПП-4388 от 09.07.2019 г. «О мерах по стабильному обеспечению экономики и населения энергоресурсами, финансовому оздоровлению и совершенствованию системы управления нефтегазовой отраслью», а также в других нормативно-правовых документах, принятых по развитию нефтегазовой отрасли.

¹ Указ Президента Республики Узбекистан №УП-60 от 28 января 2022 года «Стратегия развитию Нового Узбекистана на 2022-2026 годы»

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Данное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики VIII «Науки о Земле» (геология, геофизика, сейсмология и переработка минерального сырья).

Степень изученности проблемы. Научные исследования, направленные на изучение проблем разработки многопластовых газовых и газоконденсатных месторождений проводятся во многих ведущих научных центрах и университетах мира, в том числе в АО «O‘ZLITINEFTGAZ» (Узбекистан), Ташкентском Государственном Техническом Университете имени Ислама Каримова, ГП «ИГИРНИГМ», ООО «GRDC», филиале РГУ нефти и газа имени И.М. Губкина в г. Ташкенте (Узбекистан), научных центрах и нефтегазовых образовательных учреждениях России ОАО «ВНИИГАЗ», ОАО «ВНИИНЕФТЬ», ОАО «ТатНИПИнефть», ОАО «БашНИПИнефть», Уфимском нефтяном университете, РГУ нефти и газа имени И.М. Губкина и др.

Исследованиям по повышению эффективности разработки многопластовых месторождений природного газа посвящены многочисленные фундаментальные труды зарубежных учёных А.А. Ибатулина, А.И. Пономарёва, З.С. Алиева, Ю.К. Цику, В.Н. Федерова, В.Н. Щелкачева, Б.Б. Лапука, Ю.П. Коротаева, Г.А. Зотова, С.Н. Закирова, Н. Kazimi, S.D. Joshi, W. Hurst, и др.

Изучению проектирования оптимальных показателей разработки многопластовых газовых и газоконденсатных месторождений Узбекистана посвящены работы С.Н. Назарова, У.С. Назарова, З.С. Ибрагимова, А.А. Абидова, Ф.И. Макушева, Р.М. Миклина, В.М. Шевцова, А.Х. Агзамова, Б.А. Алиева, П.К. Азимова, Э.К. Ирматова, Б.Х. Хужаёрова, Н.Н. Махмудова, А.А. Закирова, А.У. Назарова, Б.Ш. Акрамова, А.С. Мустафаева, М.С. Суннатова и др.

Практика и текущее состояние разработки многопластовых месторождений природного газа Узбекистана свидетельствуют об относительно невысоких величинах извлечения их запасов. Если на газовых и газоконденсатных месторождениях Бухоро-Хивинского региона со степенью выработанности запасов 64 % текущий темп отбора газа составляет 3,2 %, то на многопластовых месторождениях Устюртского региона при выработанности запасов 11 % текущий темп отбора газа составляет всего 1,6 %. Это обуславливает необходимость совершенствования теоретических и практических подходов к проектированию разработки многопластовых месторождений Устюртского региона.

Связь диссертационного исследования с планами научно-исследовательского учреждения, где выполнена диссертация. Диссертационное исследование выполнено в рамках плана научно-исследовательских работ, прикладных проектов, разработанных в АО «O‘ZLITINEFTGAZ» по темам: ПУ 03.03/14.14 «Коррективы проекта опытно-промышленной эксплуатации газоконденсатного месторождения

